

MARK TVEN VA G'OFUR G`ULOM QISSALARINING QIYOSIY-LISONIY TAHLILI

Saminova Mashxuraxon Rafiqjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Xorijiy til va adabiyoti fakulteti

Ingliz tili yo'nalishi 21.89 B guruh

Ziyoxidinova Kamola Mahammadjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Xorijiy til va adabiyoti fakulteti

Ingliz tili yo'nalishi 21.89.B guruh

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7870674>

Abstrakt: Maqolada Amerika (AQSh) va o'zbek adabiyotida bolalikning badiiy dunyosi qanday talqin etilishi, ulardagi o'ziga xoslik va mushtarakliklarni qiyosiy-lisoniy tahlil asosida AQSh adibi M.Tvenning «Tom Soyerning boshidan kechirganlari», «Gekl'berri Finnning boshidan kechirganlari», hamda mashhur shoir va tarjimon G'.G'ulomning «Shum bola» asarlarini tahlil qilish, ularning bir-biridan farqlanuvchi tomonlarini, uslubiy o'ziga xosliklarini ifodalashdan iborat. Mark Tvenning «Tom Soyerning boshidan kechirganlari» va «Gekl'berri Finnning boshidan kechirganlari» romanlari hamda G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasi genetik yaqinlikka ega bo'limgan ikki milliy adabiyot vakillari bo'l mish adiblarning asarlaridir. Bu asarlar turli zamonlarda va turli mamlakatlarda yaratilganiga qaramay ularni ko'p jihatlar birlashtirib turadi. Ular mavzu jihatidan ham, syujet-kompozitsion qurilishi jihatidan ham nisbatan yaqin va deyarli o'xshash.

Kalit so'zlar: Qiyosiy-lisoniy tahlil, genetik yaqinlik, avtobiografik unsurlar, jurnalistik kuzatuv, obrazli tuzilish, tematik tahlil, sinergetik tafakkur.

XX asr jahon adabiyoti rivojiga xos eng muhim tamoyillardan biri, turli milliy adabiyotlarning o'zaro aloqalari, bir-birlari bilan tajriba almashuvi, bir-birlariga yaqinlashuvi, turli-tuman adabiy-ijodiy, uslubiy oqimlar sintezlashuvi jarayonining nihoyatda kuchayganligidir. Bu hodisani deyarli barcha milliy adabiyotlarning yirik namoyandalari ijodida, ularning dunyoga mashhur asarlarida kuzatish mumkin.

Jahon adabiyoti tarixida shunday adiblar borki, ular ijodining ahamiyati zamonlar o'tgan sari tobora to'laroq ochila boradi. Mashhur AQSh yozuvchisi Mark Tven (1835-1910) va atoqli o'zbek shoiri G'afur G'ulom (1903-1966) shunday adiblardandir. Mark Tven ijodiga turlicha qarash adib hayotligidayoq namoyon bo'ldi. U olamdan o'tganidan keyin esa adibni ayrimlar faqat humorist, o'tkir kulgi ustasi sifatida baholashsa, ayrimlar unga Amerika jamiyatining tanqidchisi sifatida qarashdi.

G'.G'ulom she'riyati bilan dunyoning besh qit'asidagi kitobxonlar yaqindan tanish. Uning asarlari o'ttizga yaqin chet tillarga: olmon, ingliz, arab, hind, urdu, farang, ispan, xitoy, bolgar, chex, slovyan, rumin tillariga tarjima qilinib, nashr etilgan. G'.G'ulom asarlarini, ayniqsa Amerika Qo'shma Shtatlarida sevib o'qishadi.

Har ikkala adib o'z davri bolalar va o'smirlarining tipik namunasini aks ettirgan mashhur asarlar yaratishgan. Ammo shu paytgacha ikki xil muhit va tuzum vakili bo'lgan bosh qahramonlarning umumiy ruhiyati va yosh fiziologiyasining bosqichlaridagi mushtarak tuyg'ular qiyosan ko'rib chiqilmagan hamda mualliflarning ularni ochib berishdagi badiiy mahorati masalalari o'r ganilmagan. Mustaqillik yillarida qiyosiy adabiyotshunoslikni rivojlantirish, ilgari yetarli darajada e'tibor berilmagan turli xalqlar bolalar adabiyoti o'rtasidagi mushtarak ijodiy metod masalalarini o'rganish zarurligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Qiyosiy-lisoniy tadqiqotlar adabiy tuzilmalarning turli jahbalarini – mavzular, his-tuyg'ular, g'oyalar, kompozitsion qurilishlar, uslublar va hokazolarni qamrab oladi. Tipologik mushtarakliklarning asosiy ko'rinishi tarixiy o'xshashliklar deb atalsa ham, biroq katta zamon va makon bilan ajralgan, ammo hech qanday ijtimoiy va tarixiy sharoitlar bilan tushuntirib bo'lmaydigan va haddan tashqari o'xshashligi bilan bizni lol qoldiradigan ko'plab adabiy hodisalar mavjud.

Mark Tvenning «Tom Soyerning boshidan kechirganlari» va «Gekl'berri Finnning boshidan kechirganlari» romanlari hamda G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasi genetik yaqinlikka ega bo'lмаган ikki milliy adabiyot vakillari bo'l mish adiblarning asarlaridir.

Mark Tvenning «Tom Soyerning boshidan kechirganlari» va uning mantiqiy davomi bo'l mish «Gekl'berri Finnning boshidan kechirganlari» romanlarida ham, G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasida ham sayohat majburiy darbadarlik sifatida namoyon bo'ladi. Asarlarning bosh qahramonlari xonardonlarida ro'y bergan noxushliklar natijasida uydan chiqib ketishga va darbadarlik qilishga majbur bo'ladilar.

Syujet asosini tashkil etuvchi zamon va makonni tadqiq qilish muallif qarashlarini, muallif ovozini yanada yorqinroq his qilish imkonini beradi. Sarguzashtlar bayon qilingan asarlarda zamon va makon o'lchovlari alohida o'rinn egallaydi. Bunday asarlarning tasviriyligi mavhum zamon va makon o'lchovlarini aniq, hayotiy mavjud narsalar, buyumlar orqali tasvirlashda ham alohida namoyon bo'ladi. Mark Tven asarlarida zamon aniq bo'lsa-da, makon ba'zan noaniq ("Gekl'berri Finnning boshidan kechirganlari"da - Missisipi daryosi va uning bo'yida joylashgan nomlari noma'lum Shaharchalar), G'afur G'ulom asarlarida esa zamon va makon tushunchasi benihoya aniq.

Har ikkala asarda ham ("Geklberri Finnning boshidan kechirganlari", "Shum bola") yo'ldagi Shahar va qishloqlarda ro'y bergan voqealar, turfa xarakterli insonlar bilan to'qnashuvlar natijasida qahramonlarning "ko'zlari ochiladi", olamga boshqacha nigoh bilan qaray boshlaydilar, xarakterlari rivojlanadi. Asarlar syujetida bir personajlar o'z vazifasini bajarib tushib qolsa, ularning o'rnini boshqalari egallaydi. Faqat bosh qahramonlargina asar oxirigacha yetib boradilar.

Mark Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" va "Gekl'berri Finnning boshidan kechirganlari" romanlari va G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida hodisalar ifodasi, an'anaga ko'ra qat'iy mantiq, muayyan maqsadga yo'naltirilgan chiziqli ziddiyatlar silsilasi tarzida emas, yagona chiziqqa tushmaydigan, tartibsiz, beqaror, ayqash-uyqash shaklda beriladi. Xaos ko'rinishidagi tartibsiz, tasodifiy hodisalar orasidagi g'aroyib sirli-sehrli o'zaro bog'liqlikni, teran ma'nodorlikni topish, kashf etish san'ati jihatidan bu asarlar hozirgi zamon fanida kashf etilgan va katta qiziqish uyg'otayotgan sinergetik tafakkur xususiyatlarini yodga tushiradi.

"Tom Soyerning boshidan kechirganlari" ham, "Gekl'berri Finnning boshidan kechirganlari" ham, "Shum bola" ham avtobiografik asarlar emas. Biroq ularda hikoyaga yorqin joziba beruvchi badiiy to'qima va avtobiografik unsurlar mavjud.. Bu yerda adiblar ulardan boshqa maqsadda – oddiy hayotiy voqealar orqali umuminsoniy mazmunni berishda foydalanishgan. Mark Tven ham, G'afur G'ulom ham bolalar va o'smirlar adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Ularning asarlari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilindi, bu asarlar nafaqat bolalarning, balki kattalarning ham ma'naviy mulkiga aylandi.

References:

1. Abrorov A., Soyimov B. G'afur G'ulomning badiiy olami. – T., 1984. – 54 b.
2. Adabiyot nazariyasi: 2 jildlik. M.Nurmuhamedova tahriri ostida. 1-jild, 2-jild. –T.: Fan. 1978, 1979. – 449 b.
3. Adabiy turlar va janrlar. (tarixi va nazariyasiga oid). 3 jildlik. 1-jild. –T.: Fan. 1991. – 334 b.
4. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat (Vatan fidoyilari) –: Akademiya, 2000.– 632 b.

